



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



## SONNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATI

**Muhammadiyeva Shaxnoza**

*Shahrisabz Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Erkinova Barno A'zam qizi**

*Shahrisabz Davlat pedagogika instituti 1- kurs talabasi*

**Pardayeva Ruxshona Mansur qizi**

*Shahrisabz Davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Son so‘z turkumining leksik va grammatick xususiyatlari o‘rganiladi. Sonlar miqdor va tartib sonlariga ajralishi, ularning morfologik belgilari, gapda bajaradigan sintaktik vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, sonlarning ot bilan bog‘lanish qoidalari, ularga qo‘shiladigan affikslar va ularning natijasida yuzaga keladigan ma’no o‘zgarishlari ko‘rib chiqiladi va turli adabiy matnlar asosida sonlarning qo’llanilishi misollar bilan tasdiqlanadi. Ish sonlarning zamonaviy o‘zbek tilidagi o‘rni va ularning uslubiy vazifalarini ochib berishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** son, leksik xususiyat, grammatick xususiyat, miqdor son, tartib son, morfologiya, sintaksis, qo’llanilish, affiks, ot bilan bog‘lanishi.

**Annotation:** This paper explores the lexical and grammatical features of numerals in the Uzbek language. It analyzes the classification of numerals into cardinal and ordinal types, their morphological characteristics, and their syntactic functions within a sentence. Special attention is given to the rules of agreement between numerals and nouns, as well as the affixation patterns that influence their meanings.

**Keywords:** numeral, lexical feature, grammatical feature, cardinal numeral, ordinal numeral, morphology, syntax, affixation, noun agreement.

**Аннотация:** В данной работе рассматриваются лексико-грамматические особенности числительных в узбекском языке. Анализируется классификация числительных на количественные и порядковые, их морфологические признаки и синтаксические функции в предложении. Особое внимание уделяется правилам согласования числительных с существительными, а также словообразовательным суффиксам, влияющим на значение числительных.

**Ключевые слова :** число, грамматическая категория, лексико-грамматические особенности, существительное, единственное число.

**Kirish qism.** Tilshunoslikda so‘z turkumlari orasida sonlar muhim o‘rin tutadi. Sonlar atrof-muhitdagi buyum va hodisalar miqdorini ifodalash, ularni tartibda sanash, taqqoslash kabi vazifalarni bajaradi. O‘zbek tilida sonlar mustaqil so‘z





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



turkumi sifatida o‘ziga xos leksik va grammatic belgilariga ega bo‘lib, ularning gapdagi vazifasi, otlar bilan bog‘lanish qoidalari, morfologik shakllanish xususiyatlari tilshunoslar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu mavzuni chuqr o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki amaliy tilda to‘g‘ri va aniq ifoda qilishda ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli, ushbu ishda sonlarning leksik-grammatik xususiyatlari, ularning turkumlanishi, morfologik shakllari hamda sintaktik vazifalari tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Sonlar va ularning leksik-grammatik xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida bir qancha olimlar tomonidan chuqr o‘rganilgan. Jumladan, S. Mirtojiyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida sonlarning morfologik tuzilishi va gapdagi sintaktik roli haqida mufassal ma’lumotlar keltirilgan. Muallif sonlarni miqdor va tartib sonlariga ajratib, ularning har biri uchun o‘ziga xos qo‘llanilish jihatlarini yoritadi. M. Jo‘rayevning ilmiy tadqiqotlarida esa sonlarning ot bilan birikishi, ular orqali hosil bo‘ladigan birikmalar, son+ot konstruksiyalarining tildagi funksional imkoniyatlari tahlil qilingan. Ayniqsa, sonlarning o‘zbek tilidagi so‘z yasashda tutgan o‘rni alohida ko‘rsatilgan. A. Madvaliev va T. Sarimsakovlarning tadqiqotlarida esa o‘zbek tilidagi sonlarning semantik xususiyatlari, ya’ni sonlar orqali ifodalananuvchi miqdor va tartibning mantiqiy va nutqiy mohiyati ohib berilgan. Bu ishlarda sonlarning boshqa so‘z turkumlari bilan grammatic aloqasi ham chuqr tahlil qilingan.

**Tadqiqod metodlari.** 1. Tavsifiy metod (deskriptiv usul). Bu metod son so‘zlarining hozirgi til tizimidagi ishlatilishiga e’tibor qaratadi. Ular qanday leksik va grammatic shakllarda qo‘llaniladi, qanday morfologik xususiyatlarga ega – ana shu jihatlar tahlil qilinadi.

2. Qiyoziy-tipologik metod. Turkiy tillar (yoki boshqa tillar, masalan, rus, ingliz) bilan qiylab, sonlarning o‘xhash va farqli tomonlari aniqlanadi. Bu metod orqali universal va milliy xususiyatlar ajratib olinadi.

3. Tarixiy-etimologik metod. Sonlarning kelib chiqishini, tarixiy rivojlanishini va arxaik shakllarini o‘rganadi. Eski o‘zbek tili, qadimgi turkiy yodgorliklardagi son so‘zları bilan bog‘liq ma’lumotlar tadqiq etiladi.

4. Struktural metod. Sonlarning til tizimidagi o‘rnini, ularning boshqa so‘z turkumlari bilan bo‘ladigan grammatic bog‘lanishlarini (masalan, son + ot, son + sifat) tahlil qiladi.

**Natija va muhokamalar.** Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sonlar o‘zbek tilining mustaqil so‘z turkumi sifatida muhim sintaktik va semantik yuklamaga ega. Ular miqdoriy va tartibiy munosabatlarni ifodalab, gapning turli bo‘laklari sifatida qatnashadi. Miqdor sonlar asosan otlar bilan bog‘lanib, predmetlarning sanog‘ini





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



bildiradi, tartib sonlar esa buyum yoki hodisaning ketma-ketligini anglatadi. Sonlarning ot bilan bog'lanishida grammatik moslashuv (affikslar orqali) muhim rol o'yndaydi. Ayrim hollarda sonlar mustaqil bo'lib, aniqlovchi, aniqlanuvchi, ega, hatto kesim vazifasida ham qo'llanishi mumkin. Bunda ularning kontekstga moslashuvchanligi va ko'p funksiyaliligi ko'zga tashlanadi. Muhokamalar jarayonida aniqlanganki, sonlar tilda nafaqat grammatik birlik sifatida, balki uslubiy vosita sifatida ham ishlatiladi. Ular orqali matnga aniqroq, ishonchliroq va mantiqiylik baxsh etish mumkin. Adabiy matnlarda, ayniqsa, badiiy tasvirni kuchaytirish maqsadida sonlarning obrazli qo'llanilishi kuzatiladi. Bu holat sonlarning nafaqat matematik ma'no, balki ifodaviy imkoniyatlarga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Sonlar o'zbek tilida mustaqil so'z turkumi sifatida keng leksik va grammatik xususiyatlarga ega. Ular miqdoriy va tartibiy munosabatlarni ifodalash orqali tildagi aniq va mantiqiy fikr ifodasiga xizmat qiladi. Sonlarning otlar bilan bog'lanish xususiyatlari, ularning morfologik shakllari va gapdagi sintaktik vazifalari tilda muhim o'rinn tutadi. Bundan tashqari, sonlar faqatgina matematik yoki sanash funksiyasigagina ega bo'lmay, balki uslubiy vosita sifatida ham ishlatiladi. Ular badiiy matnlarda obraz yaratish, aniqlik kiritish va ifodani kuchaytirish maqsadida qo'llaniladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1.N.Mahmudov, A.Nurmonov,A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahme-dov Ona tili. Umumta"lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T., «Ma"naviyat» 2005

2. G".Abdurahmonov,A.Sulaymonov „Hozirgi o"zbek adabiy tili sintaksis"" 1980

3.Anvarovna, Umarova Dilafroz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND Innovative.

4. Dilafroz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403. SOLUTIONS 1.2 (2024)

5.Anvarovna, Umarova Dilafroz. "BOSHLANG"ICH SINF O"QUVCHILARIDA IJTIMOIY USTANOVKALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024)

6. Umarova, Dilafroz Anvarovna. "BOSHLANG „ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O „QUVCHILARINI IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023).

